XALQ DEPUTATLAR JIZZAX VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-50-301-3-0-K/23 Jizzax viloyati hokimligi

Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10345-sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 2415,6 mlrd. so‘m, xarajatlari 3304,2 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 888,6 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Jizzax viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillar uchun maqsadli mo‘ljallari 1-

ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tumanlar va Jizzax shahar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar va Jizzax shahar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Jizzax viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan, shuningdek, yil davomida yangi daromad turlarida o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-va 6-ilovalarga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 14,4 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shahar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Jizzax viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shahar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Viloyat mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o‘zgartirish kiritilmaydi.

8. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7,4 mlrd. so‘mni hamda tumanlar va shahar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2024-yil uchun Jizzax viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shahar budjetlarining daromadlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan Sharof Rashidov va Zafarobod tumanlaridan tashqari;

davlat mulk ob’ektlarini ijaraga berishdan tushum.

b) Quyidagilar viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar;

davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad.

v) quyidagi soliqlar Jizzax shahar va tumanlar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning *(jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)* Jizzax shahrida 30 foizi, Baxmal tumanida 50 foizi, G‘allaorol tumanida 60 foizi, Sharof Rashidov tumanida 30 foizi, Do‘stlik tumanida 90 foizi, Zomin tumanida 25 foizi, Zarbdor tumanida 80 foizi, Zafarobod tumanida 50 foizi, Paxtakor tumanida 90 foizi, Forish tumanida 70 foizi, Arnasoy, Mirzacho‘l va Yangiobod tumanlarida 100 foizi o‘tkaziladi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Jizzax shahrida 0 foizi, G‘allaorol tumanida 20 foizi, Sharof Rashidov tumanida 20 foizi, Zomin tumanida 50 foizi, Zafarobod tumanida 10 foizi, boshqa tumanlarda 100 foizi o‘tkaziladi;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023 yilning 1-iyul holatiga ko‘ra shahar va tumanlar aholisining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi, bundan Jizzax shahar mustasno.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shahar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shahar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga Jizzax shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni joriy etishga haqli.

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika budjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy budjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha viloyatlarning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq, tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

10. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Mustanov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (A.Rahmatullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov) tuman (shahar) hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Viloyat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov), shahar va tumanlar soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul

aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

12. Jizzax shahar va tumanlar hokimliklari, “mahalla yettiligi” bilan birgalikda yer va mol-mulk soliqlarini mahalla kesimida undirilishi ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish:

undirilgan soliqlar hisobiga “mahalla budjeti”da shakllangan mablag‘larni “mahalla yettiligi”ning qarori asosida mahalladagi dolzarb muammolar, jumladan, ichimlik suvi, elektr ta’minoti, ichki yo‘llarni ta’mirlash va obodonlashtirish bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun yo‘naltirish.

13. Viloyat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Jizzax mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

14. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (B.Mengliyev) viloyat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi (A.Israilov) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi (D.Xalikov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini jadallashtirish vazifasi yuklatilsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi (A.Israilov), viloyat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2023-yil va 2024-yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

17. Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi (I.Mamatqulov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat

o‘rnatish va har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Kengashga hisobot berish vazifasi yuklansin.

18. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (G‘.Qodirov), viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.Sherliyev), viloyat Adliya boshqarmasi (A.Ergashev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

19. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining viloyat boshqarmasi (I.Sobirov), xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

20. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

21. Jizzax shahri va tumanlar hokimliklari, viloyat hokimligi axborot xizmati:

Tuman va shahar budjetlari jami xarajatlarining umumiy xarajatlarining

11,4 foizi (barcha tuman va shaharlarga teng) miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Mustanov), xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24. Xalq deputatlari viloyat Kengashining barcha doimiy komissiyalariga Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori ijrosi bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining oshirib bajarilgan qismi hamda erkin qoldiq mablag‘laridan 2024-yilga rejalashtirilgan xarajatlarning maqsadli ishlatilishi yuzasidan tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda doimiy o‘rganib borish, sessiya eshituviga kiritishga mas’ul ekanliklari belgilab quyilsin.

25. Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori ijrosi yuzasidan ajratiladigan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini tekshirish bo‘yicha amalga oshirilgan nazorat ishlarini muvofiqlashtirib borish va sessiya eshituviga kiritib borish xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati zimmasiga yuklatilsin.

26. Jizzax viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi

qarori ijrosini nazorat qilib borish Jizzax viloyati hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

27. Mazkur qaror “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **E.Saliyev**

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Jizzax viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	2025-yil uchun mo‘ljal	2026-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘mda	38 405,0	40 120,0	43 833,2
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,0%	105,5%	105,8%
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	x	x	x
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	107,4%	107,6%	108,2%
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,5%	103,6%	103,8%
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	106,1%	106,5%	106,9%

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**1 464 684 172**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	263 938 100
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	106 855 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	568 953 950
4	Aksiz solig‘i, jami	80 024 300
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*80 024 300*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	54 080 200
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	85 511 600
7	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	57 438 300
8	Yig‘imlar	54 327 000
9	Davlat boji	73 090 000
10	Jarimalar	82 199 000
11	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	796 000
12	Xususiylashtirishdan tushum	4 150 000
13	Boshqalar	
14	Respublika budjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar	33 320 722
	shu jumladan:	194,5
14,1	Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan: pivo)	14 443 448
14,2	Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i	5 817 850
14,3	Tamaki aksiz solig‘i	13 059 424

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yilgi Jizzax viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Viloyat budjeti
Xarajatlar miqdori, Jami		**1 458 284 809,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 205 710 908,00**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**252 573 901,0**
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	**667 470 046,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**374 752 435,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	180 752 435,0
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	465 799,0
	Prezident ta’lim muassasalari agentligining ixtisoslashtirilgan maktablari (maktab internatlari)ni saqlash xarajatlari	82 848 224,0
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar	39 200 000,0
	Umumta’lim maktablari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar	154 800 000,0
2	**Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi**	**57 897 949,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	57 897 949,0
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmalari saqlash xarajatlari	876 386,0
	Texnikumlar (Raqamli texnologiyalar vazirligi qarashli)	1 100 574,0
	Kasb xunar maktablari	55 920 989,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**510 718 140,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	476 156 740,0
	shundan:	
	Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasini saqlash xarajatlari	3 094 448,0
	Viloyat ilmiy Tibbiyot kutubxonasi	328 426,0
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	1 682 838,0

	Texnikumlar	8 112 436,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	34 561 400,0
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**45 778 115,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	45 778 115,0
	shundan:	
	Viloyat Madaniyat boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 249 225,0
	Viloyat Ixtisoslashtirilgan san’at maktabi	11 663 681,0
	Viloyat Ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati	7 630 640,0
	Ma’naviyat va ma’rifat markazi	3 136 046,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**80 546 298,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	80 546 298,0
	shundan:	
	Viloyat Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi saqlash xarajatlari	2 899 587,0
	Viloyat Olimpiya va parolimpiya zahiralari kolleji	30 949 385,0
	Yoshlar agentligi hududiy bolinmalarini saqlash xarajatlari	3 621 781,0
	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejalari xarajatlari	3 082 595,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**13 404 630,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 404 630,0
	shundan:	
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi va uning tasarrufidagi boshqa muassasalar	9 736 632,0
	Texnikumlar	1 557 371,0
	Qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazlari xarajatlari	2 110 627,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**48 279 285,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48 279 285,0
	shundan:	
	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi va uning tasarrufidagi viloyat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar	12 073 757,0
	O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi hududiy boshkarmalarining saqlash xarajatlari	179 824,0
	Texnikumlar	2 296 263,0
	O‘simliklar karantini inspektsiyalari xarajatlari	13 992 910,0

	Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati filiallari	5 315 296,0
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari hamda viloyat "O‘znaslchilik" markazlarini saqlash xarajatlari	4 136 922,0
	Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazlari saqlash xarajatlari	2 704 831,0
	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspektsiyasi hududiy boshqarmalari	7 579 482,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**105 951 599,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	90 251 598,0
	shundan:	
	Suv xo‘jaligi tizimi tashkilotlarini saqlash xarajatlari	46 801 598,0
	Melioratsiya obektlarini ta’mirlash va tiklash	43 450 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	15 700 001,0
9	**Transport departamenti**	**10 879 962,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 879 962,0
	Transport boshqarmalari va uning tasarrufidagi muassasalar	1 659 602,0
	Texnikumlar	9 220 360,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**53 425 653,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	40 647 772,0
	shundan:	
	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi hududiy tizim tashkilotlarining saqlash xarajatlari	12 777 881,0
	O‘rmon xo‘jaligi boshqarmalari saqlash xarajatlari	25 755 736,0
	Turizm boshqarmasi va uning tasarrufidagi muassasalar	2 114 155,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**40 510 090,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	32 656 322,0
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari xarajatlari	7 853 768,0
	Hududiy moliya organlarining malaka oshirish xarajatlari	184 043,0
	Advokatlik xizmatlari	1 300 000,0
	Davlat ichki karz foiz xarajatlari	2 171 294,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	1 155 000,0

	G‘aznachilik hududiy boshqarmalari saqlash xarajatlari	9 120 465,0
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari	8 575 927,0
	Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmalarining malaka oshirish xarajatlari	83 722,0
	Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari	2 212 103,0
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	667 470 046,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 602 287,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 602 287,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 518 991,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 518 991,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**7 570 404,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 570 404,0
	shundan:	
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi va uning tasarrufidagi viloyat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar	5 025 556,0
	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi saqlash xarajatlari	1 207 663,0
	Mahallabay Ishlash va Tadbirkorlikni Rivojlantirish Agentligi	1 337 185,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**9 274 137,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 274 137,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Adliya boshqarmasi**	**11 100 702,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 100 702,0
	shundan:	
	Adliya vazirligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari	5 319 540,0
	FHDYolarni saqlash xarajatlari	1 545 603,0
	Arxiv muassasalarini saqlash xarajatlari	3 144 789,0
	Texnikumlar	1 090 770,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

17	**Soliq boshqarmasi**	**20 207 904,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 207 904,0
	shundan:	
	Soliq qo‘mitasiining hududiy organlarini saqlash xarajatlari	18 784 335,0
	Sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari	1 423 569,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Viloyat hokimligi**	**65 825 609,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	57 513 109,0
	shundan:	
	Hokimliklarni saqlash xarajatlari	11 556 882,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	14 438 462,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	578 539,0
	Nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	5 108 582,0
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	561 238,0
	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	2 992 392,0
	Zomin tuman obodonlashtirish departamentini saqlash xarajatlari	3 284 474,0
	Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	242 000,0
	Issiqlik ta’minoti tizimini ta’mirlash xarajatlari	1 210 000,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish xarajatlari	134 531,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	813 117,0
	Viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlardagi (Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	8 473 404,0
	Qabullar uylarining saqlash xarajatlari	3 914 104,0
	Axborot kutubxona markazlari	3 218 539,0
	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	986 845,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	8 312 500,0
19	**Boshqa xarajatlar**	**19 672 268,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 672 268,0
	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hududiy bo‘linmalarini saqlash xarajatlari	3 272 072,2
	Maxsus baza	939 548,5
	Ichki ishlar vazirligining boshqa saqlash xarajatlari	8 116 600,0
	Profilaktika inspektorlarini saqlash xarajatlari	5 216 486,1
	Milliy gvardiyaga qarashli Chavandozlar bolalar va o‘smirlar sport maktablari	2 127 561,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxs-lardan olina-digan yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno)	Noruda qurilish material-lari uchun yer qa’ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat ob’ekt-larini sotishdan tushum)
1	Jizzax shahri	30	0	100	100	100	0	10	100	100	0	50
2	Arnasoy tumani	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50
3	Baxmal tumani	50	100	100	100	100	100	20	100	100	100	50
4	G‘allaorol tumani	60	20	100	100	100	50	30	100	100	40	50
5	Sharof Rashidov tumani	30	20	100	100	100	60	30	100	20	50	50
6	Do‘stlik tumani	90	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50
7	Zomin tumani	25	50	100	100	100	0	80	100	100	100	50
8	Zarbdor tumani	80	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50
9	Zafarobod tumani	50	10	100	100	100	100	20	100	10	20	50
10	Mirzacho‘l tumani	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50
11	Paxtakor tumani	90	100	100	100	100	10	70	100	100	100	50
12	Forish tumani	70	100	100	100	100	90	70	100	100	100	50
13	Yangiobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50

* Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Viloyat mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari rejasi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromad	shundan			
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	shundan	
				Shahar va tumanlar mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori
JAMI	**2 671 008 434,0**	**255 447 434,0**	**2 415 561 000,0**	**984 197 550,0**	**1 431 363 450,0**
Viloyat budjeti	33 320 722,0	33 320 722,0			
Jizzax shahri	909 709 000,0	0,0	909 709 000,0	194 723 000,0	714 986 000,0
Arnasoy tumani	39 412 502,0	8 274 502,0	31 138 000,0	27 268 000,0	3 870 000,0
Baxmal tumani	143 269 405,0	28 849 405,0	114 420 000,0	65 940 800,0	48 479 200,0
G‘allaorol tumani	266 616 967,0	31 658 967,0	234 958 000,0	115 674 300,0	119 283 700,0
Sharof Rashidov tumani	327 784 884,0	41 029 884,0	286 755 000,0	112 300 800,0	174 454 200,0
Do‘stlik tumani	99 783 245,0	11 889 245,0	87 894 000,0	70 053 400,0	17 840 600,0
Zomin tumani	219 154 975,0	30 356 975,0	188 798 000,0	88 116 150,0	100 681 850,0
Zarbdor tumani	102 757 062,0	16 035 062,0	86 722 000,0	67 861 400,0	18 860 600,0
Zafarobod tumani	218 013 813,0	9 096 813,0	208 917 000,0	45 603 800,0	163 313 200,0
Mirzacho‘l tumani	68 778 048,0	9 388 048,0	59 390 000,0	52 352 000,0	7 038 000,0
Paxtakor tumani	105 353 443,0	13 739 443,0	91 614 000,0	60 229 400,0	31 384 600,0
Forish tumani	108 783 320,0	16 720 320,0	92 063 000,0	64 547 500,0	27 515 500,0

Yangiobod tumani	28 271 048,0	5 088 048,0	23 183 000,0	19 527 000,0	3 656 000,0

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Viloyat mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlar	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
JAMI	**3 304 162 098,0**	**2 415 561 000,0**	**255 447 434,0**	**633 153 664,0**	**3 304 162 098,0**
Viloyat budjeti	1 458 284 809,0	1 431 363 450,0	33 320 722,0	-6 399 363,0	1 458 284 809,0
Jizzax shahri	195 769 822,0	194 723 000,0	0,0	1 046 822,0	195 769 822,0
Arnasoy tumani	88 203 386,0	27 268 000,0	8 274 502,0	52 660 884,0	88 203 386,0
Baxmal tumani	152 322 466,0	65 940 800,0	28 849 405,0	57 532 261,0	152 322 466,0
G‘allaorol tumani	213 910 008,0	115 674 300,0	31 658 967,0	66 576 741,0	213 910 008,0
Sharof Rashidov tumani	216 376 766,0	112 300 800,0	41 029 884,0	63 046 082,0	216 376 766,0
Do‘stlik tumani	126 439 828,0	70 053 400,0	11 889 245,0	44 497 183,0	126 439 828,0
Zomin tumani	200 558 810,0	88 116 150,0	30 356 975,0	82 085 685,0	200 558 810,0
Zarbdor tumani	126 671 050,0	67 861 400,0	16 035 062,0	42 774 588,0	126 671 050,0
Zafarobod tumani	97 453 876,0	45 603 800,0	9 096 813,0	42 753 263,0	97 453 876,0
Mirzacho‘l tumani	103 383 590,0	52 352 000,0	9 388 048,0	41 643 542,0	103 383 590,0
Paxtakor tumani	118 933 236,0	60 229 400,0	13 739 443,0	44 964 393,0	118 933 236,0
Forish tumani	132 006 397,0	64 547 500,0	16 720 320,0	50 738 577,0	132 006 397,0
Yangiobod tumani	73 848 054,0	19 527 000,0	5 088 048,0	49 233 006,0	73 848 054,0

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-301-3-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	14 500 000,0
	shundan	
1	Viloyat budjeti	7 420 000,0
2	Jizzax shahri	1 222 000,0
3	Arnasoy tumani	298 000,0
4	Baxmal tumani	571 000,0
5	G‘allaorol tumani	821 000,0
6	Sharof Rashidov tumani	756 000,0
7	Do‘stlik tumani	392 000,0
8	Zomin tumani	737 000,0
9	Zarbdor tumani	431 000,0
10	Zafarobod tumani	359 000,0
11	Mirzacho‘l tumani	346 000,0
12	Paxtakor tumani	398 000,0
13	Forish tumani	483 000,0
14	Yangiobod tumani	266 000,0